Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

MAXSUS SAHIFA

FIDOYILIK VA YETAKCHILIK TIMSOLI: YORQIN KELAJAKNI BUNYOD ETUVCHI RAHBAR



Xasanov Azizbek Baxtiyarovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar zamirida fidoyi rahbarlar, o‘z kasbiga sadoqatli ustozlar va yetakchi olimlarning mehnati mujassam. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilish, yosh avlodga zamonaviy bilimlar berish va ularni intellektual salohiyatli kadrlarga aylantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu yo‘ldagi islohotlarning muvaffaqiyati, avvalo, har bir ta’lim muassasasining kuchli, intellektual, mas’uliyatli va fidoyi rahbariyatiga bog‘liq. Har qanday muassasa yoki tashkilotning muvaffaqiyati, eng avvalo, rahbarning salohiyati, fidoyiligi va kelajakka qaratilgan aniq strategik qarashlari barobaridadir. Ayniqsa, ta’lim va ilm-fan sohalarida rahbarlik mas’uliyati yanada yuksak bilim, mas’uliyat va fidoyilikni talab etadi.

Asosiy qism. Zamonaviy institut rahbari – bu nafaqat boshqaruvchini, balki jamoani ilhomlantiruvchi, har bir xodimning o‘sishiga zamin yaratadigan yetakchi sifatida namoyon bo‘lishini anglatadi. Bunday yetakchi shaxslar yorqin kelajak sari dadil odimlaydilar, jamoani ilm yo‘lida birlashtirib, ilmiy yutuqlar sari yo‘naltiradilar.

Shunday yetakchilardan biri – **Termiz davlat pedagogika instituti rektori Xasanov Azizbek Baxtiyarovich** bo‘lib, u o‘zining bilimdonligi, tashabbuskorligi va yuksak mas’uliyat hissi bilan institut taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Institutimiz rahbari o‘zining ilmiy salohiyati, keng dunyoqarashi va zamonaviy boshqaruv tamoyillariga tayangan holda institut rivoji yo‘lida bir qator muhim



tashabbuslarni ilgari surmoqda. Jumladan, institutda ta’lim sifati oshirilmoqda, ilmiy izlanishlar rag‘batlantirilmoqda, yosh olimlar va talabalar uchun qulay muhit yaratilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish, xalqaro hamkorlikni

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

rivojlantirish borasidagi ishlar yuqori e'tiborga loyiq.

Termiz davlat pedagogika instituti – Surxondaryo viloyatida ta'lim va tarbiya sohasining tayanch maskanlaridan biri sifatida tan olingan. So'nggi yillarda institut ilmiy va innovatsion loyihalarda faol ishtirok etmoqda, professor-o'qituvchilar malakasi oshirilmoqda, talabalarning xalqaro darajadagi tanlov va musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashishi ta'minlanmoqda, ularga kerakli barcha shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ushbu yutuqlar institut rahbariyati, jumladan, rektorimizning fidokorona mehnati samarasidir.

Ilmiy izlanishlar va innovatsiyalarga e'tibor

Institutimiz rahbari o'zining ilmiy salohiyati, keng dunyoqarashi va zamonaviy boshqaruv tamoyillariga tayangan holda institut rivoji yo'lida bir qator muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Rektor tashabbusi bilan ilmiy faoliyatni rag'batlantirish, professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish va yosh olimlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Institutda o'nlab ilmiy loyihalar, xalqaro hamkorlikdagi tadbirlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, ilmiy maqolalar soni va ularning sifat ko'rsatkichlari yildan-yilga oshmoqda.



Institut taraqqiyoti – bu jamoaning jipsligi, hamjihatligi va, albatta, rahbarning puxta rejalashtirilgan faoliyati mahsulidir. Fidoyi rahbar boshchiligida institutda yangi loyihalar amalga oshiriladi, ilmiy izlanishlar rag'batlantiriladi, yoshlarga zamonaviy bilimlar berish yo'lida yangicha yondashuvlar yo'lga qo'yiladi.

Talaba markazida bo'lgan boshqaruv

Eng avvalo, barchamizning ustozimiz, ilma-fan yo'lidagi rahbarimiz har bir qarorni



qabul qilishda avvalo talabalar manfaatini inobatga oladi. Ular uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar – yangi kutubxonalar, sport inshootlari, ochiq muloqot maydonchalari – barchasi yoshlarning intellektual va ijtimoiy rivoji uchun xizmat qilmoqda. Rektor doimiy tarzda talaba-yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazib, ularning fikr va takliflariga ochiqligini namoyon etib kelmoqda.

Rahbarning o'z sohasiga sadoqati, yuragidagi Vatan va xalq oldidagi burchni chuqur his etishi bilan uni boshqalardan ajratib turadi. U faqat buyruq beruvchi emas, balki yo'l ko'rsatuvchi, rag'batlantiruvchi, tashabbuslarni ilgari suruvchi yetakchidir.

Xalqaro hamkorlik va yutuqlar

Termiz davlat pedagogika instituti bugungi



kunda bir qator xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma dasturlarni amalga oshirmoqda. Rektor rahbarligida o'tkazilgan ilmiy anjumanlar, professorlarning xorijiy safarlari, xorijlik mutaxassislar ishtirokida tashkil etilgan seminarlar institut obro'sini xalqaro miqyosda mustahkamlamoqda.



Mukofotlar va e'tiroflar

Institutimiz rahbarining ta'lim rivojiga qo'shgan hissasi e'tiborsiz qolmagan. U turli davlat mukofotlari, faxriy yorliqlar va soha doirasidagi nufuzli sovrinlarga sazovor bo'lgan. Eng muhimi, u institut jamoasi va minglab talabalar qalbida ishonchli rahbar, mehribon ustoz sifatida hurmat topgan.

Bugun biz guvohi bo'layotgan ilm-fan yutuqlari, ta'lim tizimidagi ijobiy o'zgarishlar, institutimizdagi innovatsion yondashuvlar – bularning barchasi o'z kasbiga fidoyilik bilan yondashayotgan rahbar mehnatining natijasidir.

Siyosiy faollik – jamoat manfaatlariga sadoqat belgisi

Aytib o'tish joizki, rahbarimiz nafaqat ta'lim sohasida, balki siyosiy jarayonlarda ham faol ishtirok etmoqda.

Institutimiz rahbari Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi deputati sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Ushbu mas'uliyatli lavozimda u fuqarolar bilan ochiq muloqotga kirishib, ularning muammolarini hal etishda faol ishtirok etmoqda, joylarda ijtimoiy va madaniy rivojlanishni ta'minlashga hissa qo'shmoqda. Uning deputatlik faoliyati — ta'lim, fan va jamiyatni integratsiyalashgan tarzda rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Fidoyilik namunasi – Ilm va ma'rifat yo'lida sadoqat bilan xizmat qilayotgan yetakchiga minnatdorlik

Bugungi zamonda rahbar shaxsining bilimdonligi, yangilikka ochiqligi, jamoa bilan ishlash madaniyati va har bir xodimning salohiyatini yuzaga chiqarish borasidagi mahorati ta'lim muassasasining muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi omildir. Ayniqsa, ta'lim muassasasining boshida turuvchi shaxs nafaqat tashkiliy masalalarni hal qiluvchi boshqaruvchi, balki har bir insonning qalbiga yo'l topa oladigan, ishonch uyg'otadigan va kelajakka ishonch bilan ergashtira oladigan haqiqiy lider bo'lishi kerak.

Institutimiz rahbari Termiz davlat pedagogika institutini boshqarish barobarida nafaqat institut ichida, balki viloyat, respublika va xalqaro miqyosida ham aynan shunday yetakchi sifatida e'tirof topmoqda.



Bu mehnatlar natijasi sifatida, Termiz davlat pedagogika instituti Xalqaro UI Greenmetrics reytingida, nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari ichida 892-o'rinni egalladi. Ustoz-rektorimizning har bir tashabbusi, har bir amaliy harakati – ilm-fan taraqqiyoti, yoshlar kelajagi, ta'lim sifati va xalqaro nufuzni oshirishga qaratilgan.

Ustoz yetakchiga xalqning ishonchi baland

Shubhasiz, bugun Termiz davlat pedagogika instituti yuksalishlar sari dadil

qadam tashlayotgan bo‘lsa, bu – fidokor, zahmatkash va g‘ayratli rahbar mehnatining natijasidir.

Ta’lim tizimidagi ijobiy o‘zgarishlar, xalqaro miqyosdagi hamkorliklar, innovatsion yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar asosidagi o‘quv jarayonlari – bularning barchasi institut rahbari boshchiligidagi jamoa yutug‘idir.

Biz faxr bilan ayta olamizki, bunday rahbar bilan har qanday marrani zabt etish, har qanday orzuni ro‘yobga chiqarish mumkin. Fidoyilik, sadoqat, bilim, tafakkur va yetakchilik fazilatlarini o‘zida mujassam etgan bunday ustozlar – biz uchun ibrat, yoshlar uchun esa ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, rahbar bilan institut – bu taraqqiyot yo‘lida hamnafas yuradigan, maqsadi yuksak, orzusi ulkan bo‘lgan bir jamoa. Bunday jamoaning boshida turgan yetakchi shaxs esa har jihatdan yorqin kelajakni bunyod etuvchi fidoyi rahbar bo‘lib qoladi.

Yorqin kelajak yo‘lida fidoyilik bilan mehnat qilayotgan bunday yetakchi shaxslar – xalqimiz faxri, ta’limimiz tayanchi, ilmimiz bunyodkoridir.

Termiz davlat pedagogika instituti jamoasi tabrigi.